

## LMS TIZIMIDA INTERAKTIV ELEMENTLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

**Axmedova Zulxumor Ikromovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Umumtexnik fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [axmedovazulxumor85@gmail.com](mailto:axmedovazulxumor85@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Jahon tajribasida oliy ta’limning muhim maqsadlaridan biri - bu talabalarni kasbiy rivojlantirish, ularning bilish mahoratlarini shakllantirish va olingan bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini hayotga amaliy qo‘llash texnologiyalari tatbiq etilgan. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha «Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish» xalqaro ta’lim kontseptsiyasi asosida ta’limning barcha bosqichlarini intensivlashtirish, modernizatsiyalash, axborot texnologiyalari yordamida bilimlar sifatini oshirish metod va usullarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

### KIRISH

Ma’lumki, o‘qitish vositalari – o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining bosh vazifasi talabalarga o‘z predmetini qiziqarli qilib ko‘rsatish va shu bilan birga talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini ortirishdan iboratdir. Bu o‘rinda o‘qitishning zamonaviy texnik va dasturiy vositalaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy multimediyaga texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratini, texnologik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

**Elektron o‘quv kursini ta’lim jarayonida qo‘llash.**

**Moodle ta’lim axborot tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish.**

Moodle ta’lim axborot tizimida o‘quv jarayoni Davlat ta’lim standarti, namunaviy o‘quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va rektor (o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasi va fan dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

Moodle ta’lim axborot tizimini qo‘llashda ta’lim muassasasi ta’lim oluvchilarning, professor o‘qituvchilar, mutaxassis xodimlarning o‘quv-metodik majmuaga tarmoq orqali kirish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu o‘quv-metodik majmua qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislikning Davlat ta’lim standarti;
- Davlat ta’lim standartiga mos ravishda yaratilgan namunaviy dastur;

- fanning maqsadi, vazifalarini, ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmunini, nazorat hamda kurs ishlarining mavzularini, masalalar, topshiriqlarni, yakuniy nazorat savollarini va fanning o'quv-metodik ta'minoti, mustaqil ishni tashkil etishga doir yo'riqnomani o'zida mujassamlashtirgan ishchi dastur;

- o'quv-uslubiy xarita va kalendar tematik rejalar;

- darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv materiallarining elektron versiyalari;

- mashg'ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar;

- nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarining metodik ta'minoti;

- o'quv-malakaviy amaliyot dasturi, uni tashkillashtirish bo'yicha metodik qo'llanma;

- nazariy va amaliy o'quv materiallarini o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat topshiriqlari va testlar;

- fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha ballar taqsimoti, topshiriqlar turi, baholash mezonlari.

- O'quv-metodik majmua, zarurat bo'lganda ma'lumotnomalar va lug'atlar, vaqtli, soha nashri va ijtimoiy-siyosiy nashrlar, ilmiy adabiyot va xrestomatiyalar, ma'lumotlar bazasiga murojaatlar yo'li, saytlar, axborot beruvchi tizimlar va boshqa tarmoq resurslari bilan to'ldirilishi mumkin.

Moodle ta'lim axborot tizimida o'quv jarayoni quyidagi hujjatlar asosida tashkil etiladi:

- o'quv jarayoni grafigi;

- yo'nalish bo'yicha ishchi o'quv rejasi;

- fanlar bo'yicha o'quv dasturlari, nazorat ishlari (ularning bajarilish muddatlari ko'rsatilgan holda);

- sessiya oralig'i davrida o'quv mashg'ulotlari jadvali;

- nazorat ishlarini qayd etish jurnali;

- reyting nazorati natijalarini qayd etish jamlama qaydnomasi;

- talabalarning seminarlar bo'yicha forumda qatnashishini qayd etish jurnali;

- tarmoq orqali nazorat ishlarini qabul qilinishini va o'tkazilgan konsultastiyalarni qayd etish jurnali.

- O'qitiladigan fanning sifati bo'yicha PO' va kafedra mudiri javobgar hisoblanadi.

• Tizimga kiritiladigan elektron o'quv kurslari uchun umumiy bo'lgan quyidagi talablarni olish mumkin:

• fanga kirish (tarixi, predmeti, dolzarbligi, mutaxassislik bo'yicha dasturning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va o'rni);

• fan (kurs) bo'yicha o'quv dasturi;

• fanni o'rganishning maqsad va vazifalari;

• kursni mustaqil o'rganish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;

• mundarija;

• bo'limlar bo'yicha tuzilgan asosiy mundarija;

• bo'limlar bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar, testlar, savollar, trening uchun javoblari bilan mashqlar;

• yakuniy test;

• mustaqil ishlash uchun amaliy topshiriqlar;

• katta bo'lmagan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun mavzular (mini-ITI);

• Glossari (terminlarning izohli lug'ati);

• qisqartma va atamalar ro'yhati;

• xulosa;

• adabiyotlar ro'yxati(asosiy, qo'shimcha, fakultativ);

• kursning mavzulari bo'yicha darsliklardan, jurnallardan olingan va ilmiy maqolalar lavhalarini o'z ichiga olgan xrestomatiya (dayjest);

• qo'llanmaning muallifi haqida qisqacha ma'lumot.

O'qish davrida o'qiladigan MA'RUZALAR Moodle ta'lim axborot tizimida asosiy elektron o'quv kontent hisoblanadi. Ularning maqsadi – talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladigan materiallarni umumlashtirish va tizimga solish, kursning eng muhim, asosiy va murakkab masalalarini ajratib ko'rsatish. Ma'ruzalar talabalarga pedagogik dastruiy vositalar asosida tayyorlangan holda video- yoki multimedia ma'ruzalar qo'rinishda tizimga yuklanadi. Video- yoki multimedia ma'ruzalar Moodle ta'lim axborot tizimi orqali tarqatiladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR talabalarga o'qituvchi rahbarligida elementlari barcha turdosh fanlarda mavjud bo'lgan eng ko'p uchraydigan masalalarni hal etishga, hisob-kitoblarni amalga oshirish ko'nikmalarini egallashga, ma'lumotnomalardan foydalanishni o'rganishga imkoniyat beradi. Amaliy mashg'ulotlar talaba egallagan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam beradi. Har bir ma'ruza mashg'ulotidan keyin amaliy mashg'ulotga oid o'quv elementlari joylashtiriladi.

SEMINARLAR gumanitar fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning asosiy shaklidir. Bu turdagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, seminar

suhbati davomida talabalar o'z fikrini asoslash, mantiqiy izchillikda bayon etish, berilgan savollarga tezlik bilan javob topish, dastlabki manbalardan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar. Seminar mashg'uloti Moodle ta'lim axborot tizimi mavjud bo'lgan "o'quv elementlar" orqali tashkilashtirish tavsiya etiladi.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI talabalarga tajribani to'g'ri qo'yish va olib borish haqida tasavvur hosil qilish, zamonaviy laboratoriya va o'lchov apparaturasi bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga imkoniyat beradi, ularda talabalar tajriba natijalarini tahlil qilish, bajarilgan ish haqida hisobotni rasmiylashtirishni o'rganadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari davomida talabalar tajriba natijalarini nazariyaning mavjud qoidalari bilan qiyoslaydilar, bu esa nazariy bilimlarni yanada chuqurroq egallashga imkon beradi.

**Moodle ta'lim axborot tizimida o'qitish sstenariyasi.** Moodle ta'lim axborot tizimida o'qitish samarali bo'lishida zamonaviy texnologiyalar talabiga javob beruvchi o'quv qurollari bilan bir qatorda mohirona tuzilgan ma'ruza matni va o'qitish jarayoni undagi amallar ketma-ketligini ifodalovchi o'qitish sstenariyasining ham roli juda katta.

O'qitish sstenariyasi bu masofaviy o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro bajarishi kerak bo'lgan amallar ketma-ketligi va bu amallarni bajarishda masofaviy o'qitish o'quv qurollaridan qanday tartibda foydalanishni ko'rsatuvchi dastur-rejadir. Bu klassik o'qitishdagi o'quv rejaga o'xshab ketadi. Undan farqi shuki, o'qitish sstenariyasida o'quv qurollari, programma ta'minotlari qay tarzda ishlatilish kerakligi ham ko'zda tutiladi.

Quyidagi Moodle ta'lim axborot tizimidan foydalanganda uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taklif qilish mumkin bo'lgan o'qitish sstenariyasi keltirilgan:

1. Foydalanuvchi tomonidan Moodle ta'lim axborot tizimidan foydalanishga ruxsat so'rash so'rovnoma to'ldiriladi.

2. So'rovnoma OTM axborot texnologiyalar markazi tomonidan ko'rib chiqiladi va tizimdan (platformadan) foydalanishga ruxsat beruvchi talablari bajarilgan holda foydalanuvchiga so'rovnomada ko'rsatilgan foydalanuvchi nomi va parol bo'yicha platformadan foydalanish huquqi beriladi. Agar foydalanuvchi o'qituvchi bo'lsa, unga ma'ruza qo'shish huquqi beriladi; agar talaba bo'lsa, bu huquq faqatgina platformaga kirish va undagi o'quv materiallaridan foydalanish imkonini beradi.

3. Platformaga kirish huquqini olgan talaba platformaga kirib, platformaga joylashtirilgan fanlar bilan tanishib chiqib, ularga a'zo bo'lishi va o'sha fanlarni o'rganishi mumkin bo'ladi.

4. Fanga a'zo bo'lish uchun avval a'zo bo'lmoqchi bo'lgan fan tanlanadi. U erda fanning nomi va kelasi yig'iladigan guruh va bu guruhga a'zo bo'lishning oxirga sanasi va dars boshlanish sanasi ko'rsatilgan bo'ladi. Shu axborotlar asosida talaba

o'qituvchiga fanga a'zo bo'lish so'rovnomasini yuboradi. O'qituvchi talabanning fanga a'zo bo'lish shartlarini bajargan holda fanga a'zo bo'lish ruxsatini beradi.

5. O'quv rejada o'qituvchi har bir ma'ruzaga ajratilgan vaqt, ma'ruza yuzasidan o'qituvchiga beriladigan savollar uchun muddat, ma'ruza uchun testdan o'tish muddati va uni tugatish muddati ko'rsatilgan bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08-oktabrdagi PF-5847 sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/>
3. A.A. Abduqodirov, A.X. Pardayev. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. "Fan va texnologiya". Toshkent. 2012 y. 104 b.A. Abduqodirov, A.Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: «Fan». 2009, 145 b.
4. Турсунов, БЖ; Алланазаров, ГО; ,Перспективные технологии производства по улучшению качества бензина,Теория и практика современной науки,,3 (45),305-308,2019,ООО «Институт управления и социально-экономического развития»
5. Begimqulov U., Voqiyev R. va boshqalar. Masofaviy ta'lim terminlari izohli lug'ati. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2008. -58- b.
6. Karimov Feruz. "ANIQ INTEGRALNI TAQRIBIY HISOBLASH." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu.uz](http://buxdu.uz)) 14.14 (2022).
7. Bates A.W. Distance education in a knowledge-based society / A.W. Bates // A keynote address in the ICDE Conference on The Metamorphosis of Distance Education in the Third Millennium. – Toluca, Mexico, 2007.